



A COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS OF THE NECESSITY TO INTRODUCE THE CONCEPT OF “CRIMINAL MISCONDUCT” INTO THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Anvar Kurbonov

Senior Lecturer, Department of Special
Legal Disciplines, Customs Institute

E-mail: Anvar.Qurbonov_911@mail.ru
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: offense, crime, criminal misconduct, administrative prejudice, code, punishment, penalization, imprisonment, deprivation of liberty, justice.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The article discusses the distinctive features of the institutions of administrative prejudice and criminal misconduct, which are significant in the liberalization of criminal legislation. It provides a brief overview of the advantages and disadvantages of these two institutions. In this regard, the legislation of foreign countries and the views of research scholars are comparatively analyzed from a legal perspective. Furthermore, administrative prejudice concerning certain offenses and criminal misconducts in the Republic of Uzbekistan are examined based on statistical data. At the conclusion of the study, the author's opinions and conclusions regarding the introduction of the institution of criminal misconduct into the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan are briefly presented.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIGA “JINOIY NOJO‘YA QILMISH” TUSHUNCHASINI KIRITISH ZARURATINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Anvar Qurbonov

Katta o‘qituvchi

Bojxona instituti Maxsus-huquqiy fanlar kafedrası

E-mail address: Anvar.Qurbonov_911@mail.ru
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: huquqbuzarlik, jinoyat, jinoiy nojoʻya qilmish, maʼmuriy preyuditsiya, kodeks, jazo, jazolash, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish, adolat.

Annotatsiya: Maqolada jinoyat qonunchiligini liberallashtirishda ahamiyatga ega boʻlgan maʼmuriy preyuditsiya va jinoiy nojoʻya qilmish institutlarining oʻziga xos xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Mazkur ikki institutning afzalliklari va kamchiliklari haqida qisqacha bayon qilingan. Bu borada tadqiqotchi olimlar va xorijiy davlatlarning qonunchiligi qiyosiy-huquqiy solishtirilib, Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy preyuditsiya nazarda tutilgan ayrim huquqbuzarliklar va jinoiy qilmishlar statistik maʼlumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga jinoiy nojoʻya qilmish institutini kiritish yuzasidan muallifning fikri va xulosalari qisqacha keltirib oʻtilgan.

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ НЕОБХОДИМОСТИ ВВЕДЕНИЯ ПОНЯТИЯ «УГОЛОВНЫЙ ПРОСТУПОК» В УГОЛОВНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Анвар Курбанов

Старший преподаватель кафедры

Специальных правовых дисциплин Таможенного института

E-mail: Anvar.Qurbonov_911@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правонарушение, преступление, уголовные проступки, административный преюдиция, кодекс, наказание, применение наказания, арест, лишение свободы, справедливость.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности институтов административного преюдиция и уголовные проступки, имеющих важное значение при либерализации уголовного законодательства. Кратко изложены преимущества и недостатки данных институтов. В этом контексте проведено сравнительно-правовое сопоставление законодательства зарубежных стран и мнений ученых-исследователей. На основе статистических данных проведен анализ административного преюдиция по отдельным правонарушениям и уголовные проступки в Республике Узбекистан. В заключении исследования кратко представлены мнение и выводы автора относительно введения института уголовные проступки в уголовное законодательство Республики Узбекистан.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida ma‘muriy preyuditsiya (ma‘muriy jazoga tortilgan shaxs bir yil ichida yana shunday ma‘muriy huquqbuzarlik sodir qilsa, qo‘shimcha yoki og‘ir jazoga tortilishi) instituti mavjud. Bu yondashuv ayrim qilmishlar uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish o‘rniga ma‘muriy javobgarlikni qo‘llashni rag‘batlantiradi va jazolashni yumshatib, amaldagi jinoyat qonunchiligini liberallashtiradi. Shu bilan birga, bunga o‘xshash yana bir institut mavjud bo‘lib, ayrim xorijiy mamlakatlarda, xususan Germaniya, Fransiya, Ukraina, Qozog‘istonda ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoyatlarni ajratishda jinoiy nojo‘ya qilmish (уголовный проступок) institutiga asosan yondashiladi. Bunda ba‘zi kam ahamiyatli jinoiy qilmishlar xavfli jinoyat sifatida emas, balki sud hujjati asosida jinoiy javobgarlikdan sudlanganlik bilan bog‘liq huquqiy oqibatni istisno qiladi.

Jinoiy nojo‘ya qilmish tushunchasini qonunchilikka kiritishdan oldin uning ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoyatdan ajratib turuvchi xususiyatlarini, ahamiyati hamda mohiyatini yaxshi tushunib olish lozim.

Materiallar va tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida Germaniya, Fransiya, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon, O‘zbekiston jinoyat qonunchiligi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar xususan ushbu mamlakatlarning jinoyat kodekslari hamda mavzuga oid ayrim ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

Muallif fikrlarini keltirishda tadqiqotchi olimlar F.Xolikov, N.A.Lopashenko, V.P.Malkov va V.V.Voljenkin, M.A.Lapina, Y.Trunsevski, D.V.Karpukhin kabi ekspertlarning fikrlariga asoslanildi.

Tadqiqot davomida turli institutlar (ma‘muriy preyuditsiya va jinoiy nojo‘ya qilmish) nazariy jihatdan solishtirildi, ilmiy tadqiqotning qiyoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Qonunni qabul qilishdan oldin ma‘muriy huquqbuzarlik, jinoiy nojo‘ya qilmish va jinoyatlarni farqlab olish huquqbuzarlik yoki jinoiy nojo‘ya qilmish og‘ir ijtimoiy xavfli oqibatlarga sabab bo‘luvchi jinoyat emasligini anglash, qonunchilikda hamma uchun birdik aniq tushunarli bo‘lgan xususiyatlarini belgilash shaxsning aybdorlik darajasini va shaxs uchun oqibatlarini to‘g‘ri baholashga yordam beradi. Bundan tashqari sodir qilingan qilmishi uchun shaxsga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar qo‘llaydigan huquqiy ta’sir doirasini yoki chegarasini aniq belgilash ham o‘zboshimchalik va adolatsiz choralar (jismoniy, ruhiy bosim)ni qo‘llashga imkon bermasligi zarur.

Tadqiqotchi olim F.Xolikovning fikriga ko‘ra, jinoyat qonunchiligidagi ayrim normalarda ma‘muriy preyuditsiyaning ifodalanishi insonparvarlik va adolatlilik tamoyillariga to‘la mos kelmaydi: bir yil ichida ma‘muriy huquqbuzarlikni qayta sodir etish jinoyatning sifat

ko'rsatkichini ham, ijtimoiy xavf darajasini ham oshirmaydi, javobgarlik oqibatlari shaxs sodir etgan huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgandan so'ng tugatilishi kerak [1].

Bu fikrlardan ma'muriy preyuditsiya afzalmi yoki jinoiy nojo'ya qilmish institutimi aniq ajratish mushkul.

Xorijlik tadqiqotchilar V.V.Voljenkin va M.I.Kovalyov jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiyaning mavjudligi "non bis in idem" (lotincha tamoyil bo'lib, "bir odam bir xil huquqbuzarlik uchun ikki marta jazolanmasligi kerak" degan ma'noni anglatadi. Bu prinsip inson huquqlari va adolatli sudlovning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi) prinsipiga zid keladi deb ta'kidlashgan [2. B.3-14].

Tadqiqotchi N.A. Lopashenkoning fikriga ko'ra, ma'muriy preyuditsiya jinoyat huquqidan olib tashlanishi kerak, chunki bu institut adolat tamoyiliga zid [3. B.64-71] sanaladi desa, boshqa bir tadqiqotchi V.P.Malkov bu institutni saqlash tarafdori, "u yordamida qonuniy tejamkorlik va adolat o'rtasida muvozanat o'rnatiladi" – deb hisoblaydi [4].

Iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarda ma'muriy preyuditsiyaning o'rni haqida M.A.Lapina, Y.Trunsevski, D.V.Karpukhin quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "iqtisodiy sohadagi huquqbuzarliklar tarkibiga nisbatan ma'muriy preyuditsiya muammosiga murojaat qilish — jinoiy qonunchilikni insonparvarlashtirish zarurati kontekstida dolzarb bo'lib, bu ba'zi iqtisodiy jinoyat tarkiblarini dekriminalizatsiya qilish — ya'ni ularni jinoyatga tenglashtirilgan huquqbuzarliklar doirasidan chiqarib, ma'muriy javobgarlik sohasiga o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi paytda jinoyatlar, kam ahamiyatli qilmishlar va ma'muriy huquqbuzarliklar o'rtasidagi chegaralarning "xiralashuvi" kuzatilmoqda, bu esa huquqni qo'llash amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" [5].

Tadqiq qilinayotgan masalada xalqaro tajriba esa quyidagicha:

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 10-moddasida jinoyat va jinoiy nojo'ya qilmish tushunchalari tarifi belgilangan (2014 yildan).

Jinoiy qilmishlar ijtimoiy xavflilik darajasi va jazolanishiga ko'ra jinoyatlar va jinoiy nojo'ya qilmishlarga bo'linadi.

Qonunchilik bilan taqiqlangan aybli ravishda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jarima, axloq tuzatish ishlari, jamoat ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo tahdidi ostida jinoyat deb topiladi.

Jinoiy nojo'ya qilmish – bu aybli ravishda sodir etilgan shaxs, tashkilot, jamiyat yoki davlatga nisbatan katta ijtimoiy xavf tug'dirmaydigan, lekin ularga oz miqdorda zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish xavfini yuzaga keltiradigan, sodir qilinganligi uchun jarima, axloq tuzatish ishlari, jamoat ishlariga jalb etish, qamoq, Qozog'iston Respublikasi hududidan chet el fuqarosi

yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni chiqarib yuborish kabi jazo choralari qo'llanilishi mumkin bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Agar harakat yoki harakatsizlik formal jihatdan mazkur Jinoyat kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan qandaydir jinoyat tarkibini o'z ichiga olsa ham, lekin kam ahamiyatliligi sababli jamiyat uchun xavf tug'dirmasa, u jinoiy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi [6].

Bundan tashqari Qozog'iston Jinoyat kodeksining 11-moddasida jinoyatlar jamiyat uchun xavflilik darajasi va xususiyatiga qarab uncha og'ir bo'lmagan, o'rtacha og'irlikdagi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Qozog'iston Jinoyat kodeksining 40-moddasi 1-qismida jinoiy nojo'ya qilmish uchun belgilangan 5 ta jinoiy jazo turi alohida ko'rsatilgan.

Bundan tashqari har bir jinoiy jazo tavsifi va miqdori (muddati) belgilangan moddalar matnida jinoiy nojo'ya qilmish va jinoyat uchun jinoiy jazo miqdor(muddat)lari alohida-alohida belgilangan.

Qozog'iston Jinoyat kodeksining 79-moddasi 2-qismida jazodan ozod qilingan shaxs, shuningdek sodir qilingan jinoiy nojo'ya qilmishi uchun sudlangan shaxs sudlanmagan hisoblanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksi 12-moddasida jinoiy qilmish Jinoyat va jinoiy nojo'ya qilmish turlariga ajratilgan hamda ularga alohida tariflar berilgan.

Jinoyat (Verbrechen) – sodir qilinganligi uchun kam jazo sifatida bir yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazo nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy qilmishdir.

Jinoiy nojo'ya qilmish (Vergehen) – sodir qilinganligi uchun kam jazo sifatida juda oz muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima shaklidagi jazo nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy qilmishdir [7].

Sodir etilgan qilmish tavsifi bo'yicha Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan jinoyat hisoblanadi va uning natijasida zarar yetadigan jinoyat obyekti muhofazasi Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi, ammo jazolar engil (jarima, shartli jazo) bo'ladi. Jinoyat kodeksi moddasining matnida qaysi hollarda qilmish jinoiy nojo'ya qilmish ko'rinishidagi jinoyat hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan.

Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksi 111-1-moddasida qilmishlar xavflilik darajasiga qarab jinoyat, jinoiy nojo'ya qilmish va huquqbuzarlik turlariga ajratilgan [8].

Jinoyat sodir qilinganligi uchun o'gir oqibatlarni yuzaga keltiradigan va nisbatan og'ir jinoiy jazo nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy qilmish hisoblanadi.

Jinoiy nojo'ya qilmish jinoyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar sirasiga kiradi.

Jinoiy nojo'ya qilmish sodir etilganda 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki jamoat ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, jarima, shartli ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llanishi mumkin.

Ukraina Jinoyat kodeksi 11-moddasida faqatgina jinoyat tushunchasi keltirilgan biroq Jinoyat kodeksining 12-moddasi "Jinoyatlarni tasniflash" deb nomlangan bo'lib, moddaning 1-qismida jinoiy qilmishlar jinoiy nojo'ya qilmish va jinoyatga ajratilgan bo'lsa, moddaning 2-qismiga ko'ra "jinoiy nojo'ya qilmish – Jinoyat kodeksida sodir qilinganligi uchun asosiy jazo sifatida fuqarolarning soliqqa tortilmaydigan daromadining 3000 baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jazo nazarda tutilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi".

Jinoyatlar og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir turlarga bo'linadi [9].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 14-moddasida jinoyat tushunchasi va 15-moddada jinoyatlar toifasi belgilangan bo'lib, jinoiy nojo'ya qilmish bilan bog'liq normalar mavjud emas [10]. O'zbekistonda bo'lgani kabi ayrim moddalarda ma'muriy preyuditsiya nazarda tutilgan qilmishlar mavjud.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasida jinoyat tushunchasi va 15-moddada jinoyatlar toifasi belgilangan bo'lib, jinoiy nojo'ya qilmish bilan bog'liq normalar mavjud emas [11].

Ayrim mamlakatlarda jinoiy nojo'ya qilmish uchun javobgarlikning qo'llanishi

Mamlakat	Jinoiy nojo'ya qilmish toifasi qonunchilikka kiritilganligi	Amaldagi holati (oqibati)	Jinoyat uchun sudlanganlik
Qozog'iston	Bor	Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan yengilroq muqobil jazo turi	Yo'q (Qamoq jazosi qo'llansa bor)
Germaniya	Bor	Yengil sanksiyali muqobil jazo turi	Bor (lekin jazo darajasi qisqartiriladi)
Fransiya	Bor	Yengil sanksiyali muqobil jazo turi yoki shartli hukm	Bor (cheklangan darajada)
Ukraina	Bor	Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan yengilroq muqobil jazo turi	Yo'q
O'zbekiston	Yo'q	Barcha jinoiy qilmish jinoyat*	Bor*
Rossiya	Yo'q	Barcha jinoiy qilmish jinoyat*	Bor*
Ozarbayjon	Yo'q	Barcha jinoiy qilmish jinoyat*	Bor*

* Ijtimoiy xavfi kam yoki kam ahamiyatli qilmishlar ham jinoyat hisoblanadi.

Bunday turdagi normaning jinoyat qonunchiligiga kiritilishining amaliy ahamiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin deb o'ylaymiz:

tarbiyaviy roli – shundaki jamiyatda og‘ir oqibatlariga olib kelmaydigan lekin formal jinoiy qilmish uchun jinoyat sodir etgandagidek jazoga emas, balki shaxsning axloqini tuzatishga qaratilgan nisbatan yengil choralar (ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jarima, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari kabi) bilan ta’sir qilishi mumkin, qo‘llanadigan huquqiy chora shaxsni kelgusida shu kabi va undan yomonroq qilmishlardan o‘zini tiyishiga xizmat qilishi kerak;

huquq va tartibga solishdagi roli – g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar og‘ir jinoyatlardek unchalik xavfli bo‘lmasa ham, bunday qilmishlar ommaviy miqyosda sodir etilganda jamoat tartibini, o‘zgalarning huquqlarini buzishi, qonunlarni ochiqdan-ochiq mensimaslikni yuzaga keltirishi mumkin, shuning uchun ularni aniqlash va to‘xtatish muhim hisoblanadi;

mas’uliyatni shakllantirishdagi roli – ma’muriy huquqbuzarlikdan farq qiluvchi yengilroq jinoiy qilmishlarning ham salbiy oqibatlarini bilish fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda huquqiy ongini shakllantirishga, nojo‘ya qilmishlardan tiyilishga yordam beradi;

adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qilishdagi roli – fuqarolar bilan bir qatorda mansabdor shaxslarda ham qonunlar talablariga og‘ishmay rioya qilish majburiyatini bajarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga jinoiy nojo‘ya qilmish tushunchasi va unga oid normalar kiritilishining nazariy jihatdan quyidagi afzalliklarini ko‘rsatish mumkin:

aybdorlik darajasini farqlash – quyidagilarga imkon beruvchi jinoiy nojo‘ya qilmish va jinoyatlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi:

- xavfliligi kamroq xatti-harakatlar uchun engilroq jazo choralari qo‘llash;
- ijtimoiy xavfi kam jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan (tortiladigan) shaxsning huquqiy holatini nisbatan yaxshilaydi (tergov va sud muhokamasi davridagi ruhiy bosimlar, sudlanganlik holati);

tarbiyaviy funksiyasi – noqonuniy xatti-harakatlar uchun tarbiyaviy choralar (jarima, axloq tuzatish ishi, majburiy jamoat ishi kabi jazo choralari orqali og‘irroq jinoiy qilmishlarning oldini olish imkoniyatini beradi;

yondashuvdagi moslashuvchanlik – qonunchilik javobgarlikning turli shakllarini (ma’muriy, jinoiy nojo‘ya, jinoiy) nazarda tutib, qonunbuzar shaxsning holati va motivlarini hisobga olish (aliment, soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash kabilarda) imkonini beradi;

tergov va sud tizimidagi yuklamani yengillashtirish – jinoiy nojo‘ya qilmishlar ro‘yxati belgilanishi, bunday ishlarning surishtiruv organlari tomonidan tergov qilinishi davlatning dastlabki tergov va sud tizimidagi resurslarini tejashga, e’tiborni og‘ir turdagi jinoyatlarni samarali fosh qilishga qaratishda yordam beradi;

korruptsiya xavf-xatarlarni kamaytirish – jinoiy nojo‘ya qilmish va jinoyatlar o‘rtasidagi farqli xususiyatlarni, ular uchun qo‘llanadigan jazolar miqdorini aniq belgilash tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sudlar faoliyatidagi korruptsiya holatlar, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishi mumkin.

Mamlakatimiz qonunchiligiga jinoiy nojo‘ya qilmish tushunchasi va unga oid normalar kiritilishi nazariy jihatdan quyidagi muammolar yoki qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin:

qonunchilikdagi noaniq chegaralar yoki normani qo‘llashdagi noaniqlik – ma‘muriy huquqbuzarlik, jinoiy nojo‘ya qilmish va jinoyat orasidagi alohida xususiyat va aniq farqlar qonunchilikda qat‘iy belgilanmasa, ayniqsa takroriy yoki qasddan sodir etilgan qilmishlar o‘rtasidagi farqni topishni qiyinlashtiradi;

hokimiyat vakolatini suiiste‘mol qilish – ma‘muriy huquqbuzarlik, jinoiy nojo‘ya qilmish va jinoyatni malakalash, jazo tayinlash holatlarida hokimiyatni suiiste‘mol qilishga olib kelishi mumkin (masalan, og‘ir qilmishni yengili bilan malakalash, adolatsiz jarimalar yoki jazo chorasi, tergovga qadar tekshiruv yoki tergovdagi asosli dalillarsiz bosim);

aholining huquqiy savodxonligi yetarli emasligi – ko‘pchilik fuqarolar o‘z huquqlarini bilmaganliklari va muayyan qilmish huquqbuzarlik, jinoiy nojo‘ya qilmish yoki jinoyat ekanligini tushunmaganliklari sababli, ular jazo ustidan shikoyat qilish huquqi orqali murojaatlarni ko‘paytirishi mumkin.

jazo chorasining bir xilda qo‘llanilmasligi – qonun chiqaruvchi qonunchilikda jinoiy nojo‘ya qilmishlar va ular uchun tayinlanadigan jazolar ro‘yxatini aniq belgilab bermasa, sudlarda jazoni tayinlashda turli xil amaliyot shakllanishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo‘lib qoladi.

Jinoiy nojo‘ya qilmish turini jinoyat qonunchiligiga kiritish va huquqni qo‘llash amaliyotidagi afzalliklari, kamchiliklari yoki xatarli jihatlari haqida ham turli fikrlarni keltirish mumkin.

Afzalliklari:

Jinoiy qonunchilikning insonparvarlik rolini oshiradi – ya‘ni shaxsni mayda yoki ijtimoiy xavfi kam jinoyatlar (mayda maishiy o‘g‘irlik, aliment to‘lamaganlik, sayyohlarning uchuvchisiz uchish apparatini olib kirganligi) uchun sudlanganlik maqomiga tushib qolmaslik imkonini beradi.

Ijtimoiy stigmani (jamiyatda muayyan holatlar uchun kamsitilish) – kamaytiradi va rehabilitatsiyaga yordam beradi.

Ozodlikdan mahrum qilish joylari yoki tergov hibsonalari ish yuklamasini kamaytiradi – kam ahamiyatli va ijtimoiy xavfi kam jinoiy ishlar soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Xavfli bo‘lmagan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan muqobil jazo qo‘llanadi.

Huquqbuzarliklar va jinoyat orasidagi aniq farq belgilab olinadi amaldagi “oraliq zona (ma’muriy preyuditsiya)” barham topib jinoiy qilmishlar ro’yxatini aniq belgilash orqali ma’muriy huquqbuzarliklarni jinoyatlardan ajratish oson, milliy qonunchilikni xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish mumkin bo’ladi. Bugungi kunda ko’pgina xorijiy mamlakatlar (Qozog’iston, Fransiya, Germaniya, Ukraina) mazkur modelni muvaffaqiyatli qo’llab kelmoqda. Rivojlangan davlatlar bilan huquqiy tajriba almashish imkoniyatlari ham ortadi.

Qonuniylik, insonparvarlik va adolat kafolatlanadi, maishiy o’g’irlik, aliment to’lamaganlik kabi kam ahamiyatli qilmishlar uchun jazo og’ir jinoyat kabi emas, balki jinoiy nojo’ya qilmish hisoblanib, asossiz sudlanganlik xavfini kamaytiradi. Jinoyatlarni ro’yxatga olishdan qochish holatlariga ham barham beriladi (previntiv choralarni ham qo’llash hisobiga).

Yuzaga kelishi mumkin bo’lgan kamchiliklar yoki xatarlar:

- qonunchilikning murakkablashganligi bahonasida davlat organlari tizimi ichida ham, jinoyatchilik olami vakillari orasida ham o’z qoidalariga ega yangi toifa paydo bo’lishi, ular tomonidan jinoyat, jinoiy nojo’ya qilmish va ma’muriy huquqbuzarliklar o’rtasida chalkashliklar yuzaga keltirilishi mumkin;

- tergovga qadar tekshiruv, tergov organlari xodimlari tomonidan qonunbuzarliklar sodir qilinishi, korrupsion holatlar ortishi ya’ni huquqni muhofaza qilish organlari ustidan nazorat kuchsiz bo’lgan taqdirda, “ishni tez tugatish” uchun fuqarolarga qilmishdagi aybini tan olishlari uchun bosim o’tkazilishi yoki og’ir qilmish yengili bilan malakalanishi mumkin;

- jinoyat qonunchiligida kengroq tizimli islohotlar zarurati yuzga kelishi ya’ni amaldagi Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi bir qismini qaytadan yozish, shuningdek, protsessual qoidalarni o’zgartirishga sabab bo’lib, bu qo’shimchasiga bir muncha vaqt va resurslarni talab qiladi.

- qonunchilikning yumshoq kuchi bahonasida nazorat yetarli bo’lmaganda takroriy noqonuniy harakatlar sodir etgan shaxslar tomonidan jinoiy javobgarlikdan qochish uchun jinoiy nojo’ya qilmishlar sodir qilish ortishi mumkin.

Bojxona organlari amaliyotiga oid ayrim jinoyatlarni xususan, Jinoyat kodeksining 182-moddasini oladigan bo’lsak uning birinchi qismida ma’muriy preyuditsiya nazarda tutilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.02.2023-yildagi “Bojxona to’g’risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida” 2-son qarorining 3-bandi to’rtinchi xatboshisiga ko’ra O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasining birinchi qismi bo’yicha jinoiy javobgarlik tovar va transport vositalarini ko’p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o’tkazganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan (O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining 22719, 22720, 22721-moddalari va 22722-moddasining birinchi qismi) shaxs

ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida yana shunday huquqbuzarliklardan birini ko'p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasi 1-qismining ma'muriy preyarditsiya nazarda tutilgan eski tahrirdagi va amaldagi matni keltirilgan bo'lib, farqli jihati shundaki amaldagi tahrirda qilmishni jinoyat sifatida malakalashda ma'muriy jazodan tashqari noqonuniy olib o'tilgan tovarlar miqdori ham alohida belgilangan.

<i>182-modda birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahriridan oldin</i>	<i>182-modda birinchi qismi dispozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda</i>
Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —	Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari tahliliga ko'ra MJtKning 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹-moddalari va 227²²-moddasining birinchi qismi bilan sodir etilganligi qayd qilingan ma'muriy huquqbuzarlik holatlari:

Modda	MJtK 227 ¹⁹ -modda		MJtK 227 ²⁰ -modda		MJtK 227 ²¹ -modda		MJtK 227 ²² -modda 1-qismi	
Yil	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)
2013	377	67	2	0	1556	2 248,1	6821	14 265,8
2014	222	100,2	1	4,5	1510	2 562,9	6795	14 499,2
2015	218	133,8	20	102,3	911	2 138,6	9758	20 127,5
2016	183	80,5	0	0	443	1 031,4	10209	19 011,2
2017	347	343,7	14	23,9	741	2 165,2	5192	21 479,8
2018	1594	5 029,6	264	2 439,5	476	2 724,3	3013	22 827,5
2019	3165	9 753,5	411	856,4	558	5 460,6	3017	22 958,5
2020	838	3 047,6	145	481,8	233	17 698,8	1680	52 215,9
2021	412	2 852	43	415,4	101	2 090	2571	71 706,9
2022	2078	25 646,7	91	1 505,1	238	6 186,6	3603	108 085
2023	2480	33 922,8	160	1 938,7	268	5 987,7	3890	138 379,7
2024	3100	28 573,5	246	4 884,8	289	5 332,8	4436	251 369

Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari tahliliga ko'ra JK 182-moddasi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari:

Modda	JK 182-modda 1-qism	JK 182-modda 2-qism
-------	---------------------	---------------------

Yil	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)	Holat soni	Tovar summasi (mln. so'm)
2013	1	25,4	146	40 329
2014	1	42,1	101	12 999,7
2015	0	0	78	15 354,6
2016	0	0	96	21 837,9
2017	0	0	84	30 556,1
2018	0	0	132	36 135,5
2019	1	98,1	136	70 420,1
2020	0	0	207	128 081
2021	0	0	173	171 429,2
2022	0	0	228	116 334,9
2023	0	0	238	182 488,6
2024	0	0	239	178 398

Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari tahliliga ko'ra MJtKning 22725-moddasi bilan sodir etilganligi qayd qilingan ma'muriy huquqbuzarlik holatlari:

Modda	MJtK 227 ²⁵ -modda 1-qism		MJtK 227 ²⁵ -modda 2-qism	
Yil	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)
2013	215	676,5	3	70,8
2014	188	625,1	2	48,8
2015	158	586,5	2	13,5
2016	150	843,5	0	0
2017	234	1 885,7	1	0
2018	262	2 937,7	2	0
2019	639	11 323,5	3	109,2
2020	707	44 946,7	6	66,6
2021	1307	47 445,1	1	5
2022	1103	45 333,6	1	0
2023	974	34 449,7	1	0
2024	1366	142 882,7	0	0

Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari tahliliga ko'ra JK 184-moddasi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari:

Modda	JK 184-modda 1-qism		JK 184-modda 2-qism		JK 184-modda 3-qism		JK 184-modda 4-qismi	
Yil	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)	Holat soni	Qo'shimcha hisoblangan summa (mln. so'm)
2013	0	0	16	309,7	23	2 211,5	0	0
2014	0	0	17	519,7	25	773,6	0	0
2015	0	0	7	307,6	13	135,5	0	0
2016	0	0	1	40,3	2	264,1	0	0
2017	0	0	0	0	2	1 079,3	0	0
2018	0	0	1	68,8	19	13 132,3	0	0

2019	0	0	1	0	10	4 181,3	0	0
2020	0	0	0	0	9	7 367,4	0	0
2021	0	0	0	0	9	1 574	0	0
2022	0	0	0	0	10	7 020,1	0	0
2023	0	0	1	133,7	7	10 540,8	0	0
2024	0	0	2	223,3	16	21 818,2	0	0

Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari tahlilidan ham ko‘rish mumkinki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182, 184-moddalarining 1-qismlari bilan jinoyat ishlari so‘nggi o‘n yillikda deyarli qo‘zg‘atilmagan. Shunga mos ma’muriy huquqbuzarliklar esa ba’zi yillarda ko‘paygan, boshqa yillarda kamaygan. Bu esa ma’muriy huquqbuzarlik uchun jazodan so‘ng shaxslarning xulqi tuzalganidan yoki aksincha jinoyatlarni chetlab o‘tish usullari topilayotganligidan darak berishi mumkin.

Xulosa: Ma’muriy preyuditsiya, O‘zbekistonda jinoiy jazo tizimini yumshatish (liberallashtirilishi kerak bo‘lgan qilmishlarni jinoiy javobgarlikdan chiqarish) yo‘nalishida amalda sinovdan o‘tgan va qulay. Bu institut orqali odamlar bir marta ma’muriy jazo olib, keyin jinoiy qilmish sodir etmaslikni uddalay oladi.

Jinoiy nojo‘ya qilmish, Jinoyat kodeksiga kiritilmagan kam ahamiyatli qilmishlar uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmasligini, bu esa ilgari jinoyat sanalgan ba’zi qilmishlar endi ma’muriy huquqbuzarliklar qatoriga kiritilishini anglatadi. Bu institut ham liberallashtirishga xizmat qiladi, lekin O‘zbekistondagi ma’muriy preyuditsiyaga o‘xshash huquqbuzarlikni “e’tirof etmaslik” (non bis in idem) nuqtai nazardan amalda tatbiq qilish biroz murakkab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchilarning fikrlaridagi qarama-qarshiliklar quyidagilarda ifodalanadi, ya’ni B.V.Voljenkin va M.I.Kovalev ma’muriy preyuditsiya institutini “Non bis in idem” tamoyiliga zid, ma’muriy jazo va jinoiy jazo kombinatsiyasi notenglikka olib keladi deb uni tanqid qilishsa, Malkov esa pul, vaqt va resurslarni tejash nuqtai nazaridan bu institut ma’muriy va jinoiy bosimni kamaytiradi, tizimni liberallashtiradi deb hisoblaydi.

Qonunchilik va amaliyotni uyg‘unlashtirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, M.A.Lapina, Y.Trunsevski, D.V.Karpukhinlar fikriga ko‘ra ma’muriy preyuditsiya orqali iqtisodiy jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish usuli qonunchilikni soddalashtiradi va ma’muriy nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Amaldagi tartib, mavjud qonunchilik tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston uchun ma’muriy preyuditsiya instituti jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali vosita bo‘lishi mumkin, chunki u jamiyat hayotida yumshoqroq yondashuvni ta’minlaydi, jazo tizimini esa liberallashtiradi.

Bizning huquq tizimimiz uchun yangilik bo‘lgan jinoiy nojo‘ya qilmish instituti ham mazkur yondashuvni takomillashtirishda salmoqli yordam berishi mumkin, biroq uning jinoiy javobgarlikdagi prinsipial jihatlarini puxta o‘rganish zarur.

Milliy tadqiqotchilar va huquq tizimi bizga yaqin bo'lgan davlatlar tadqiqotchilari orasida ham bu masalalar bo'yicha ustuvor bo'lgan konsensus yo'q.

Shu boisdan yangi ekspert-analitik ishlar, empirik tahlillar va xalqaro tajribani qiyosiy solishtirish usulidagi tadqiqotlar orqali qaysi institutning aniq sharoitda samaraliroq ekanini aniqlash muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, avvalo xalqaro tajribani tahlillar asosida atroflicha ilmiy-amaliy o'rganish shart.

Yangi institutning ijobiy sifatlari sohalar kesimida ham ilmiy-amaliy tadqiqotlar yordamida isbotlangach, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirish:

“Ushbu kodeksida aniq belgilangan jinoyatning barcha (formal) belgilariga ega bo'lgan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo nazarda tutilgan, ijtimoiy xavflilik darajasi past yoki kam ahamiyatli qilmish jinoiy nojo'ya qilmish deb topiladi.

Jinoiy nojo'ya qilmish qonunchilik bilan taqiqlangan jinoyat turi hisoblansada, uni sodir qilganlik uchun javobgarlikning qo'llanilishi sudlanganlik bilan bog'liq huquqiy oqibatni yuzaga keltirmaydi.”

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasini quyidagi mazmundagi birinchi qism bilan to'ldirish va amaldagi birinchi – beshinchi qismlarni tegishlicha ikkinchi – oltinchi qismlar deb belgilash.

“Jinoyatlar jinoiy nojo'ya qilmish va jinoyat turlariga bo'linadi.”

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ma'muriy preyarditsiya instituti nazarda tutilgan 56 ta moddasidagi 68 ta jinoyat tarkibi bo'yicha qilmishlarni jinoiy nojo'ya qilmishlar sifatida belgilash.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishlarining tergov(surishtiruv)ga taalluqligiga oid normalarini ya'ni jinoiy nojo'ya qilmish hisoblanuvchi jinoyat ishlarini tergov qilishni surishtiruv shaklida ishni qo'zg'atgan surishtiruv organlari vakolatiga o'tkazish haqidagi o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kholikov F.U. “Issues of qualification of the act with the norms of the criminal code with administrative prejudice”. universum: economy and law. №6 (105). June 2023. [https://7universum.com/pdf/economy/6\(105\)%20\[21.05.2023\]/Kholiko.pdf](https://7universum.com/pdf/economy/6(105)%20[21.05.2023]/Kholiko.pdf)

2. Volzhenkin B.V., Principle of justice and problemy mnojestvennosti prestupleniy po UK RF / B.V. Volzhenkin // Zakonnost. - M., - 1998 - No. 12 - S. 2-7; Kovalev M.I., Prestuplenie i prostupok / M.I.Kovalev // Problemy sovershenstvovaniya zakonodatelstva po ekreplenyu

pravoporyadka i usilenie borby s pravonarushenyami: meyvuz. sb. Nauch. tr. Sverdlovsk: Izd-vo Sverdl. walk in-ta, – 1982 – S. 3–14.

3. Lopashenko N. A. “There is no administrative prejudice in criminal law!” Bulletin of the Academy of the Prosecutor General’s Office of the Russian Federation, 2011, No. 3 (23), 64 71.

4. Malkov V. P. “Administrative prejudice: pros and cons.” Bulletin of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Russian Federation, 2011, No. 3 (23), 58 64.

5. Lapina M.A., Truncevski Y., Karpukhin D.V. (2015). Administrative issue preclusion as a way of decriminalization of criminal offences and distinction between criminal offences and administrative offences. NB: Administrative Law and Administration Practice, 2, 24–56. <https://doi.org/10.7256/2306-9945.2015.2.15899>

6. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

7. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://constitutions.ru/?p=24969>

8. Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://constitutions.ru/?p=25017>

9. Ukraina Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30418109&pos=603;-56#pos=603;-56

10. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

11. Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=579;-56